



## ZAMONAVIY MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV TAMOYILLARINING TAKOMILLASHUVI

*Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna FarDU*  
*filologiya fanlari doktori (DSC), dotsent [yuldilaf@mail.ru](mailto:yuldilaf@mail.ru)*  
*Habibuddinova Moxlaroyim Akmaljon qizi FarDU,*  
*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi*  
*(maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi, 1-bosqich magistranti*  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15255162>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv tamoyillarining takomillashuvi va nutqiy kompetensiyaning rivojlanishi muammolarini yoritadi. Nutqiy kompetensiyaning rivojlanishi bolalar bilan samarali muloqotda bo'lish, ularning o'z fikrlarini aniq ifodalash, va umumiy ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, maqolada nutqiy kompetensiya rivojlanishining boshqaruv tamoyillari bilan bog'liqligi, pedagogik yondashuvlar va metodlarning ahamiyati ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** boshqaruv tamoyillari, maktabgacha ta'lim, nutqiy kompetensiya, pedagogik yondashuvlar, takomillashuv, malaka oshirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv tamoyillarini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish ta'lim sifatini oshirish va muassasalarning samarali faoliyatini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida, zamonaviy boshqaruv tamoyillari, axborot texnologiyalarini joriy etish, kadrlar siyosatini takomillashtirish va ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali ta'lim tashkilotlarining boshqaruv tizimi samarali ishlashi mumkinligi aniqlangani ma'lum bo'ldi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv tamoyillarini takomillashtirish va nutqiy kompetensiyani rivojlantirish o'qituvchilarning malakali faoliyat yuritishiga, shuningdek, bolalarning umumiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilarning malakasini oshirish va pedagogik yondashuvlarning yangilanishi, bolalar bilan samarali muloqotda bo'lish, ularni nutqiy kompetensiyaga yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega. Nutqiy kompetensiya bolalarning o'z fikrlarini to'g'ri ifodalash, kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish va umuman ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarurdir.

Boshqaruv tamoyillarining takomillashuvi va nutqiy kompetensiyaning o'zaro bog'liqligi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv tamoyillarini takomillashtirish, umumiy boshqaruv jarayonlarining samaradorligini oshiradi. Boshqaruv jarayonida nutqiy kompetensiyaning ahamiyati juda katta. O'qituvchilar bolalar bilan to'g'ri va samarali muloqot o'rnatish, ularning fikrini tinglash, o'z fikrini aniq ifodalash va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Boshqaruv tamoyillarini takomillashtirish orqali pedagogik tizimdagi islohotlar o'z samarasini beradi. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni xar tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" to'g'risida so'z yuritilib bu konsepsiya maktabgacha ta'limni rivojlantirish va maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda yanada takomillashtirilgan vosita va metodlarni ko'payishida muhim qadam bo'ldi.

Pedagoglarning malakasini oshirish. Pedagoglarning malakasini oshirish va ularning pedagogik faoliyatini takomillashtirish uchun maxsus treninglar va kurslar tashkil etilishi kerak. Pedagoglarni nutqiy kompetensiya rivojlanishiga yo'naltirilgan treninglar bilan ta'minlash, bolalar bilan samarali muloqotda bo'lishlari uchun zarurdir. Pedagoglar uchun zamonaviy metodik qo'llanmalar, resurslar va materiallar yaratish, ularning pedagogik faoliyatida innovatsion yondashuvlarni qo'llashga yordam beradi.



#### Muammolar va takliflar:

1. O'qituvchilarni malaka oshirishda cheklangan imkoniyatlar: O'qituvchilarga taqdim etilayotgan malaka oshirish kurslari va treninglar soni cheklangan, bu esa ularning o'qituvchilik faoliyatida zamonaviy metodlarni qo'llashda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

2. Pedagogik metodlarning eskirishi: Ko'pgina maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik metodlar eskirgan, yangi metodlar va texnologiyalarni qo'llashda qiyinchiliklar mavjud.

3. Resurslarning yetishmasligi: Maktabgacha ta'lim muassasalarida zarur pedagogik resurslar, metodik qo'llanmalar va texnik vositalar yetishmayapti.

#### Takliflar:

1. O'qituvchilarning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish: Maktabgacha ta'lim o'qituvchilarining malakasini oshirish uchun maxsus treninglar va kurslar tashkil etilishi kerak. Treninglar zamonaviy pedagogik metodlar va nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

2. Pedagogik yondashuvlar va metodlarni yangilash: O'qituvchilar yangi pedagogik metodlar, texnologiyalar va interaktiv yondashuvlar bilan tanishtirilishi kerak. Bu pedagogik islohotlar bolalar bilan samarali ta'lim va muloqotda bo'lishni ta'minlaydi.

3. Infrastruktura va resurslarni yaxshilash: Maktabgacha ta'lim muassasalarida zarur bo'lgan infratuzilma va pedagogik resurslar mavjudligini ta'minlash zarur. Nutqiy kompetensiya rivojlanishiga yordam beradigan materiallar, didaktik qo'llanmalar, texnik vositalar va o'quv resurslari o'qituvchilarga yetarlicha taqdim etilishi lozim.

Xulosa. Zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv tamoyillarining takomillashuvi nutqiy kompetensiyaning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv tamoyillarini takomillashtirish, pedagogik yondashuvlar va metodlarni yangilash, o'qituvchilarning malakasini oshirish orqali bu jarayonni yanada samarali qilish mumkin. O'qituvchilarning malakasini oshirish, yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llash, zamonaviy metodlar va texnologiyalarni taqdim etish, bolalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Nutqiy kompetensiyaning rivojlanishi va boshqaruv tamoyillarining takomillashuvi o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur o'rganish, maktabgacha ta'lim sohasida yanada samarali boshqaruvni amalga oshirish imkonini yaratadi. Biroq, o'qituvchilarning malakasini oshirish, pedagogik yondashuvlarni yangilash va nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarurdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PF-4312-son “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/-4327235>

2. PQ-4527-sonli Prezident qarori. “Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, 2019-yil 6-noyabr. – www.lex.uz

3. PQ-5-sonli Prezident qarori. “Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida”, 2023-yil 10-yanvar. – www.lex.uz

4. Sh.M.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston – maktabgacha ta'limdan boshlanadi. Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 12-18.

5. Sh.M. Mirziyoyev Yangi O'zbekiston – maktabgacha ta'limdan boshlanadi. Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 12-18.

6. Sobirjonovich S. I. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirishning lingvo-didaktik shart-sharoitlari. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 3(4), 124–130.

7. Soliyev, I., & Habibuddinova, M. (2025). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV TAMOIYILLARINING ZAMONAVIY



MAKTABGACHA TA'LIM TARAQQIYOTI, MUAMMO YECHIM VA  
ISTIQBOL” Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 9-10 aprel  
2025-yil



YONDASHUVLARI. B CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND  
INNOVATION (Т. 4, Выпуск 1, сс. 132–134). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14754126>

8. Xusanovich, M. O. (2024, November). MAKTABGACHA TA'LIM  
MUASSASALARIDA TADBIRKORLIK MADANIYATIGA O'RGATISH. In  
INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 3,  
No. 25, pp. 16-18).